ERKIN VOHIDOVNING “O‘ZBEGIM” QASIDASIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

Toshkent amaliy fanlar universiteti Ifodali o‘qish va nutq madaniyati fani o‘qituvchisi Ravshanova Gulrux

Toshkent amaliy fanlar universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi Rustamova Guliza Nurseyit qizi

+998946155112

gulizarustamova621@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur o‘zbek shoiri Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasida tarixiy shaxslar obrazining badiiy talqini yoritiladi. Asarda Mirzo Ulug‘bek va Firdavsiy kabi buyuk siymolar orqali o‘zbek xalqining ilm-fan va adabiyotga qo‘shgan beqiyos hissasi, milliy g‘urur va ma’naviy merosi ifodalangan.

Maqolada ushbu tarixiy shaxslarning ramziy mazmuni hamda asardagi g‘oyaviy vazifasi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Erkin Vohidov, “O‘zbegim”, qasida, Mirzo Ulug‘bek, Firdavsiy, Muqimiy, Furqat, Nodira, milliy g‘urur, hind, afg‘on, badiiy talqin.

O‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani badiiy ifodalash muhim o‘rin tutadi. XX asr o‘zbek she’riyatining yirik namoyandasi Erkin Vohidov ijodida bu mavzu yetakchi ahamiyat kasb etadi. Uning “O‘zbegim” qasidasi xalqimizning buyuk o‘tmishi, boy madaniyati va ma’naviy qudratini ulug‘lovchi asar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur qasidada tilga olingan Mirzo Ulug‘bek va Firdavsiy kabi obrazlar misolida tarixiy shaxslarning badiiy talqini tahlil qilinadi.“O‘zbegim” qasidasi shoirning o‘z xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbati va faxr tuyg‘ularini aks ettiradi. Asarda tarixiy voqealar qahramonlar timsolida milliy o‘zlikni anglashning muhim omili sifatida talqin qilinadi.Tarixiy shaxslar xalqning ma’naviy qudratini namoyon etuvchi ramzlar darajasiga ko‘tariladi. Asarni mutolaa qilar ekanmiz butun o‘zbek xalqining tarixini yuqori

cho‘qqiga ko‘tarib turishga xizmat qiladigan, o‘zining qator samarali faoliyati bilan davrning so‘nmas chirog‘iga aylangan va shu chiroqlarni bugungi kunimizni yoritishga xizmat qilayotganidan, ajdodlarimizga yana bir bor faxr va iftixor tuyg‘usini tugamiz.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek
Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon tokiga ilk -
Qo‘ydi narvon, o‘zbegim

Ushbu parchada Mirzo Ulug‘bek obrazi ilm-fan va ma’rifat timsoli sifatida gavdalanadi. Shoir Ulug‘bekni osmon sirlarini tadqiq etgan buyuk olim, tafakkur va aql-zakovat ramzi sifatida tasvirlaydi. Bu obraz orqali o‘zbek xalqining qadimdan ilmga e’tibor bergani, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shgani ta’kidlanadi. Mirzo Ulug‘bek obrazi qasidada nafaqat tarixiy shaxs, balki ma’naviy ideal sifatida ham namoyon bo‘ladi. U yosh avlodni ilmga, izlanishga va tafakkurga chorlovchi timsol vazifasini bajaradi.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbegim.

Erkin Vohidov qasidada Firdavsiy nomini esga olib, sharq adabiyoti va ma’naviyatining buyuk an’analariga murojaat qiladi. Firdavsiy obrazi adolat, vatanparvarlik va so‘z qudrati ramzi sifatida talqin etiladi. Uning “Shohnoma” asari orqali xalqlarning tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlari avloddan avlodga yetib kelgani e’tirof etiladi. Shoir Firdavsiy obrazini keltirish orqali o‘zbek xalqining jahon adabiy-madaniy makoni bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu obraz qasidada milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ifodalaydi. Mirzo Ulug‘bek va Firdavsiy obrazlari yuksak pafos va ramziy ifodalar orqali tasvirlar ekan, shoir tarixiy tafsilotlardan ko‘ra, ushbu shaxslarning ma’naviy mohiyatiga

ko‘proq urg‘u beradi. Natijada ular umumlashtirilgan, ibratli obrazlar sifatida talqin qilinadi.

Asar orqali tarixga yana bir nazar tashlar ekanmiz, asar silsilasiga jilo berib turgan yana bir millatimizning yorqin qahramoni, o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan, ko‘pchilikni o‘z shijoati bilan lol qilgan Nodirabegim siymosi bilan davom etgan satirlarga ko‘zim iz tushadi.Nodira shunchaki shoira emas, balki o‘zbek adabiyotida qasida janrida ijod qilgan yagona ayol ijodkordir.

She’riyatning gulshanida
So‘ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko‘z yosh,
Ko‘mdi armon, o‘zbegim.

Asarda bitilgan ushbu misralar o‘zbek she’riyatining malikasi, Nodirabegimning fojiali qismatiga ham bag‘ishlangan. "She’riyat gulshanida so‘ldi mahzun Nodira" deyilganda, shoiraning Amir Nasrullo tomonidan shafqatsizlarcha qatl etilishi va bu bilan adabiyot bog‘i katta yo‘qotishga uchragani ko‘zda tutilgan. “Siym tanni yuvdi ko‘z yosh” jumlasi uning nafosat va poklik timsoli bo‘lganligini, uning o‘limi hatto toshlarni ham yig‘latadigan darajadagi adolatsizlik ekanini ifodalaydi. “Ko‘mdi armon, o‘zbegim” misrasi orqali esa, bunday buyuk siymoning xunrezlik qurboni bo‘lishi butun millatning bitmas armoniga aylangani bayon qilingan. Shoir bu satrlar bilan o‘zbek tarixi va adabiyotining eng g‘amli sahifalaridan biriga ehtirom bajo keltirmoqchi bo‘ladi..

Yig‘ladi furqatda Furqat
Ham muqimliqda Muqiym,
Nolishingdan Hindu Afg‘on
Qildi afg‘on, o‘zbegim.

Erkin Vohidov ushbu asarida tarixni kuylash bobida, misralarda so‘z o‘yinlari (tajnis san’ati) orqali zamonadagi ilhaqli kunlarni ochib berishga urinadi. Jumladan, “*Yig‘ladi furqatda Furqat”* deganda shoir, Furqatning o‘z nomi va

“ayriliq” (furqat) ma’nosini bog‘lab, uning vatan gadosi bo‘lib chet ellarda sarson bo‘lganiga ishora qilgan. *“Ham muqimliqda Muqiym”* jumlasi orqali Muqimiy o‘z yurtida turg‘un (muqim) yashasa-da, chor mustabidligi davrida g‘urbat va moddiy muhtojlikda hayot kechirganini aytmoqchi bo‘ladi. *“Nolishingdan Hindu Afg‘on qildi afg‘on”* satrida esa, Afg‘oniston davlati nomi bilan “afg‘on” (dod-faryod) so‘zini o‘ynatib, o‘zbek xalqining boshidan kechirgan dardu nolalari shunchalik kuchli bo‘lganki, hatto qo‘shni o‘lkalar ham bunga chiday olmay dod solganini ta’kidlagan. Umumiy ma’noda shoir xalqning o‘tmishdagi ijtimoiy fojealari va buyuk siymolarning ayanchli taqdirini yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etgan. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning “O‘zbegim” qasidasida Mirzo Ulug‘bek, Muqimiy, Furqat, Nodira va Firdavsiy orbrazlari muhim g‘oyaviy vazifani bajaradi. Ushbu tarixiy shaxslar orqali shoir o‘zbek xalqining ilmiy va adabiy merosi, ma’naviy qudrati va milliy g‘ururini yuksak darajada ifodalaydi. Qasida bugungi kunda o‘quvchilarni ajdodlar merosini qadrlashga va unga munosib bo‘lishga chorlaydi. Zero, Islom Karimov tarix aytganidek, o‘tmishsiz kelajak yo‘qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin Vohidov "O‘zbegim" 2017 Toshkent
2. Erkin Vohidov "she’rlar to‘plami" 2023 Toshkent
3. XXasr o‘zbek adabiyoti 2015 Toshkent
4. http://www.Google.ru